**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
______________________
2023 yil “___”____________

# ONA TILI-O‘QISH SAVODXONLIGI VA UNI O‘QITISH METODIKASI

## O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta’lim

**Ta’lim sohasi:** 110000 – Ta’lim

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60110500 – Boshlang‘ich ta’lim

**Chirchiq - 2023**

| Fan/modul kodi<br>OTO'SUO'M106 | O‘quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>5-6 | ECTS-Kreditlar<br>4-4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/ modul turi**<br>Majburiy | **Ta’lim tili**<br>O‘zbek/rus/qozoq | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | **Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi** | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanning o‘qitishdan maqsad – talabalarni boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanining mazmuni va vazifalari, o‘qitish usullari, ta’limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat. Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona tili didaktikasi va metodikasi haqida ma’lumot berish hamda ona tilini o‘quv predmeti sifatida qanday o‘qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga o‘rgatish, ularda ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Fanning vazifasi – talabalarda boshlang‘ich sinflar ona tili ta’limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni, shuningdek, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi, maktab darsliklarining mazmuni va metodik tuzilishi bilan tanishtirish orqali boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning zamonaviy ilg‘or metod, usullari haqida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**V-SEMESTR**

**1-mavzu. So‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi.** Fe’lni o‘rganish metodikasi. So‘z turkumlarini leksik va grammatik ma’nosi ustida ishlash.

**2-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi**

So‘z birikmasi va gap ustida ishlash. Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O‘quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari.

**3-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda punktuatsiya elementlari va orfografiyani o‘rganish metodikasi**

Kichik yoshdagi o‘quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish. Boshlang‘ich sinflarda imloga o‘rgatish. Imloga oid mashqlar.

**4-mavzu. Kitobxonlik faoliyatini shakllantirish**

O'qish malakasi haqida tushuncha. O'qish malakalarining sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish.

**5-mavzu. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish**

Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni.

**6-mavzu. Xalqaro baholash dasturlari haqida ma'lumot. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish**

PIRLS xalqaro tadqiqoti bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlash malakasini shakllantirish. PIRLS topshiriqlari asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish (namunaviy, konstruktiv, variativ, ijodiy mashq turlari).

**7-mavzu. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash metodikasi**

Har xil janrdagi asarlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Ertakni o'qish metodikasi.

**8-mavzu. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash metodikasi**

Hikoya janridagi asarni o'qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o'qitish metodikasi.

**9-mavzu. Boshlang'ich sinfda liroepik asarlar ustida ishlash metodikasi**

Masal janridagi asarlarni o'qitish metodikasi. Masal janrinig boshqa janrlardan farqini tushuntirish. Epik she'rlar bilan tanishtirish usullari.

**10-mavzu. Boshlang'ich sinfda lirik asarlar ustida ishlash metodikasi**

She'r janridagi asarni o'qitish metodikasi. Lirik she'rlar bilan tanishtirish usullari.

## VI-SEMESTR

**1-mavzu. Boshlang'ich sinfda xalq og'zaki ijodi ustida ishlash metodikasi**

Doston, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo'shiqlari janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.

**2-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirish**

Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishning maqsadi va vazifalari. To'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma.

**3-mavzu. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlash tamoyillari**

Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari.

**4-mavzu. Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari**

Nutq va uni o'stirish tushunchasi. Nutq turlari

**5-mavzu. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar**

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita. O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa o'quv predmetlar bilan bog'liqligi.

**6-mavzu. Bog‘lanishli nutq va uni o‘stirish vazifalari**

Bog‘lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog‘lanishli nutqdan mashq turlari. Bog‘lanishli nutqqa oid aniq ko‘nikmalar

**7-mavzu. Bog‘lanishli nutq. Og‘zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon**

Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo‘yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari.

**8-mavzu. Bog‘lanishli nutq. Og‘zaki hikoya va yozma insho**

Og‘zaki va yozma insho turlari. O‘quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar.

**9-mavzu. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari**

O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari.

**10-mavzu. Nutq malakasini baholash mazmuni, shakli, vositalari va mezonlari. O‘quvchilar bilimini nazorat qilishda qo‘llaniladigan texnologiyalar**

## V-SEMESTR

**III. Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda “So‘z turkumi” bo‘limi darslarida foydalaniladigan interfaol metodlarni tahlil qilish.**

**2-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda “Gap” bo‘limi darslarida foydalaniladigan samarali metodlar va didaktik vositalarni tahlil qilish.**

**3-mavzu. Sintaktik mavzular o‘rganiladigan darslarda foydalaniladigan samarali metodlar va ko‘rgazmali vositalarni tahlil qilish.**

**4-mavzu. Boshlang’ich sinflarda gap tuzishda foydalaniladigan metodlarni tahlil qilish**

**5-mavzu. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini kuzatish va mustaqil ish topshiriqlarini tahlil qilish.**

## VI-SEMESTR

**1-mavzu. Ona tili darslarini lug‘at ustida ishlash yuzasidan didaktik materiallarining ahamiyatini tahlil qilish.**

**2-mavzu. Ona tili darslarida ko’rgazmali materiallarining ahamiyatini tahlil qilish.**

**3-mavzu. Bayon va insho yozish darslarini kuzatish va tahlil qilish.**

**4-mavzu. Diktant yozish darslarini kuzatish va tahlil qilish.**

**5-mavzu. Ona tilidan o‘quvchilarga berilgan bilim, ular hosil qilgan ko‘nikma va malakalarni tekshirishga oid darslarni kuzatish.**

**IV. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**V-SEMESTR**

1. Ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish tamoyillari, ona tili o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
2. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslariga qo‘yiladigan talablar, innovason pedagogik texnologiyalar.
3. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi dasturining tahlili. 5-11- sinf ona tili va adabiyot fani dasturlarining qiyosiy tahlili.
4. To‘garak rejasini va mashg‘ulot ishlanmasini tuzish. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan tanlovlar rejasini ishlab chiqish.
5. Savod o‘rgatish tayyorlov davri o‘qish darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
6. Savod o‘rgatishning tayyorlov davri yozuv darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
7. Savod o‘rgatish asosiy davri o‘qish darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
8. Savod o‘rgatishning asosiy davri yozuv darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
9. ”Fonetika” bo‘limidagi mavzularni o‘rganish yuzasidan 1-2-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
10. ”Fonetika” bo‘limidagi mavzularni o‘rganish yuzasidan 3-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
11. ”So‘zning morfemik tarkibi” bo‘limidagi mavzularni o‘rganish yuzasidan 1-2-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
12. ”So‘zning morfemik tarkibi” bo‘limidagi mavzularni o‘rganish yuzasidan 3-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
13. Lug‘at ustida ishlash nuqtai nazaridan mashq materiallarini tahlil qilish.
14. Ot so‘z turkumini o‘rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
15. Sifat so‘z turkumini o‘rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**VI-SEMEST**

1. Son so‘z turkumini o‘rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
2. Olmosh so‘z turkumini o‘rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Fe’l so‘z turkumini o‘rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
4. Gap va so‘z birikmasi ustida ishlash yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

| | |
|---|---|
| | 5. Metodik adabiyotlardan foydalangan holda tinish belgilarining ishlatilishi bilan tanishtiriladigan hamda imlo ustida ishlash imkoniyati mavjud mashq materiallari ustida ishlash.<br>6. Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi dasturini tahlil qilish.<br>7. PIRLS topshiriqlari asosida Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan matnlarni tahlil qilish (1-2-sinflar).<br>8. PIRLS topshiriqlari asosida Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan matnlarni tahlil qilish (3-4-sinflar).<br>9. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (1-sinf).<br>10. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (2-sinf).<br>11. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (3-sinf).<br>12. Boshlang'ich sinfda epik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (4-sinf).<br>13. Boshlang'ich sinfda liroepik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (1-2-sinflar).<br>14. Boshlang'ich sinfda liroepik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (3-sinf).<br>15. Boshlang'ich sinfda liroepik asarlar ustida ishlash uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish (4-sinf).<br>**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Boshlang'ich ta'limda yaratilgan barcha «Alifbe», «Yozuv daftari»ni qiyosiy-tanqidiy tahlili.<br>2. Savod o'rgatishdan yaratilgan metodik qo'llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili.<br>3. Savod o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.<br>4. Fonetika va grafika asoslarini o'rganishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.<br>5. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish.<br>6. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.<br>7. So'z tarkibini pedagogik texnologiyalarni o'rganishda qo'llash.<br>8. So'z tarkibini o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish. |

| | |
|---|---|
| | 9. So'z tarkibini o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.<br>10. 1-4-sinflar uchun nashr etilgan metodik qo'llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili.<br>11. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishini tahlil qilish.<br>12. Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ko'rgazmalar.<br>13. Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan mustaqil ishlarni ishlab chiqish.<br>14. Sifat so'z turkumini o'rganishda interfaol usullarni qo'llash.<br>15. Sifat so'z turkumini o'rganishdagi leksik-semantik mashqlar.<br>16. Son so'z turkumi yuzasidan darslikdagi berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish.<br>17. Son so'z turkumini o'rganishda grammatik o'yinlardan foydalanish.<br>18. Olmosh so'z turkumini o'rganishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.<br>19. Son so'z turkumini o'rganishdagi mashqlar tizimini tahlil qilish.<br>20. Boshlang'ich sinf darsliklarida fe'lga oid mashqlarni tasnif qilish.<br>21. Fe'l so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlarni tayyorlash.<br>22. So'z turkumlarini o'rganishda hosil qilinadigan orfografik bilimlar.<br>23. So'z turkumlarini o'rganishga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish.<br>24. Internetdan boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishga oid ma'lumotlarni yig'ish.<br>25. 1-4-sinf darsliklaridagi orfografiyaga oid mashqlarni tahlil qilish.<br>26. Boshlang'ich sinfda gap ustida ishlashdagi izchillik.<br>27. Gap ustida ishlashga oid mustaqil ishlar.<br>28. Boshlang'ich sinf darsliklarida punktuatsiyaga oid berilgan materialar tahlil qilish.<br>29. To'g'ri o'qishga o'rgatish usullari.<br>30. Tez o'qishga o'rgatish usullari.<br>31. Ongli o'qishni ta'minlash usullari.<br>32. Ifodali o'qishga o'rgatish.<br>33. Badiiy asar tahlilida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.<br>34. Hikoya matni tahlili.<br>35. Ertak matni tahlili.<br>36. She'r matni tahlili.<br>37. Masal matni tahlili.<br>38. Ilmiy- ommabop asarlar matni tahlili. |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>– ona tili fanining umumiy tushuncha, qoida, qonun va nazariyalarining o'zaro bog'liqligi; ona tili fanining shakllanish va rivojlanishining tarixiy bosqichlari; ona tili fanining keyingi yutuqlari; ona tili fanining nazariy masalalari to'g'risida, jumladan, ona tili imlosi, uslubiyati; ona tilimizning |

| | |
|---|---|
| | rivojlanish tarixi; ona tilimizning lug'at tarkibi; ona tilimizning fonetika va fonologiyasi; ona tili fanining grammatikasi; ona tili fanining uslubiyati;ona tili fanining imlosi haqida; ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari; ona tilini o'qitish tarixi, rivojlanishi, fanning ob'ekti va sub'ekti; "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi"ning tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar; ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish metodlari; ona tili va o'qish savodxonligidan dars turlari va unda qo'llanadigan innovasion texnologiyalar; til bo'limlarini o'qitishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqida ***tasavvurga ega bo'lishi*** **(bilim);**<br>– ona tili fani bo'yicha leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, imlosi, uslubiyati bo'yicha tahlil qila olish, ona tili va o'qish savodxonligi darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ona tili ta'limida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi*** (ko'nikma);<br>– o'quv ishlarini loyihalashtirish; darsdan tashqari mashg' ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish; o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi (malaka)*** kerak. |
| **4.** | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>– interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>– guruhlarda ishlash;<br>– amaliy mashg'ulotlar<br>– taqdimotlarni qilish;<br>– individual loyihalar;<br>– jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>– ijodiy ishlar yaratish |
| **5.** | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Q.Xusanboyeva M.Xazratqulov. Ona tili o'qish savodxonligi metodikasi 1-qism. Innovatsiya ziyo. 2022<br>2. S. Matjonov, H. Vakiyeva. Boshlang'ich sinflarda ona-tili o'qitish metodikasi – 2021y CHDPI<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim |

| | |
|---|---|
| | ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2.S. Matjonov, H. Vakiyeva. Boshlang'ich sinflarda ona-tili o'qitish metodikasi. CHDPI 2021y<br>3.M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.<br>4.Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Saryiev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.<br>5. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to'plami. Toshkent: TDPU. 2009.<br>6. Lutfullayeva D. Hozirgi o`zbek adabiy tili 2-qism. Ташкент.'IQTISOD-MOLIYA"-2018<br><br>**Axborot manbalari**<br>http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.pedagog.uz<br>www.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "29" 08 1-dagi qarori bilan tasdiqlanganlar:** |
| 8. | Fan/modul uchun mas'ulari:<br>Sh.Botirova - CHDPU, "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi mudiri<br>I.Madraximova - CHDPU, "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi<br>M.Axmadaliyeva - CHDPU, "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | Taqrizchilar:<br>A.R. Xamroyev – BuxDU, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori.<br>G.A. Xolboyeva – Jizzax DPI, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |